



## Toshkent shahar chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi

IV. Meta ma'lumotlar

V. Aloqador boshqa havolalar.

### I. Chakana savdo tovar aylanmasi


2025-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 593 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 216 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 377 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 35 170,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 110,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 14 257,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 913,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 105,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,6 %) tashkil etdi.

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;


### Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>



Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (*ulushi foizda*)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


## II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 17 707 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 289 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 17 418 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2025-yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 74 175,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 48 207,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 49,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega xududlar Bektemir (123,9 %), Sirg'ali (116,5 %), Shayxontohur (114,5 %), Chilonzor (114,4 %) va Olmazor (113,2 %) tumanlarida kuzatildi.

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>


### III. Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi

2025-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 989 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 70 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 919 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 8 936,3 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 57,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (mlrd so‘m)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘shish sur‘atlari (foizda)



#### IV. Meta ma‘lumotlar

\*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi–2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

**ichki savdo** – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat. Bunday savdo ikki toifaga bo‘linadi ulgurji va chakana savdo;



**ulgurji savdo** – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

**chakana savdo** – tovarlarni sotish kanallaridan qat'iy nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

#### IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>

<b>Chop etishga mas'ul:</b> Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> B. Mirzoulug'ov Tel: +998712038003 (3540)	<b>Ijrochi:</b> M. Qodirov Tel: +998712038003 (3542)	<b>Manzil:</b> 100000, Toshkent sh. Mirobod t. Amir Temur k. 11-uy;
--	--	--	---